

**TARTIBGA SOLINMAGAN PIYODALAR O'TISH JOYLARIDA SODIR
BO`LAYOTGAN YO'L-TRANSPORT HODISALARINI VUJUDGA
KELTIRUVCHI OMILLAR**

Sh.A. Temirov - assistent

Andijon mashinasozlik instituti,

"Transport vositalari muhandisligi" kafedrasi

S.B. Azimjonov

Andijon mashinasozlik instituti,

"Avtomobil servisi" yo'nalishi 4-kurs talabasi

D.N. Daminov

Andijon mashinasozlik instituti,

"Avtomobil servisi" yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Yo'l harakati xavfsizligining ishonchli ta'minlanishi xaydovchilar va piyodalarning hayoti va salomatligini ta'minlash yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Transport vositalarining tezligini oshirish, ishtirokchilarning yo'l harakati qoidalarini bilmasligi, shuningdek mensimaslik mamlakat yo'llarida ro'y berayotgan bunday fojiali statistikaning asosiy sabablari hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Svetafor, Avtomobil, ko'cha, yo'l, piyoda.

Аннотация: Надежное обеспечение безопасности дорожного движения, обеспечение жизни и здоровья водителей и пешеходов становится все более важным. Увеличение скорости транспортных средств, незнание участниками правил дорожного движения, а также пренебрежительное отношение к ним являются основными причинами столь трагической статистики на дорогах страны.

Ключевые слова: светофор, автомобиль, улица, дорога, пешеход.

Abstract: Reliable provision of road safety, ensuring the life and health of drivers and pedestrians is becoming more urgent. Increasing the speed of vehicles, participants' ignorance of traffic rules, as well as disregard are the main reasons for such tragic statistics on the country's roads.

Keywords: traffic light, car, street, road, pedestrian

Kirish. Avtomobil yo'llarida, shahar ko'cha va maydonlarida transport vositalarining normal harakat rejimining buzilishi oqibatida insonlar halok bo`lishiga, tan jarohati olishiga, shuningdek, transport vositalariga va undagi yuklarning zarar ko'rishiga, yo'ldagi sun'iy inshootlarning zararlanishiga yoki boshqa turdag'i moddiy zararlar yetkazishga sababchi bo`luvchi halokatlarga yo'l-transport hodisasi deyiladi. Bu ta'rifga ko'ra yo'l-transport hodisasida ikkita omil bo`lishi tavsiflidir, bular: insonlarning o'limi, tan jarohati yoki katta miqdordagi moddiy zarar, shuningdek, biron-bir transport vositasining harakatda bo`lishidir.

Harakatni tashkil etishni takomillashtirish progressiv boshqarish vositalari (harakatni boshqarishni avtomatik tizimi; svetofor ob'ektlarini "yashil to'lqin", "yashil ko'cha" tizimi uslubida ishlashi; tezlashuvchi-sekinlashuvchi, reversiv, rezerv polosalaridan foydalanish, ba'zi bir ko'chalarni bir tomonli harakatga o'tkazish va

h.k.z.) chorrahalarini har xil sathda o`tkazish, shuningdek, transport vositalarining harakat yo`nalishini ratsional ravishda tashlash yordamida erishiladi. Yo`l harakatini tashkil etishda quyidagi hujjatlarning ahamiyati katta. “Yo`l harakati xavfsizligi to`g`risidagi” O`zbekiston respublikasining qonuni, yo`l harakati qoidasi, transport vositalarining konstruktiv xavfsizlik me`yorlari, yo`l va ko`chalar uchun qurilish me`yorlari va qoidalari, shuningdek, harakat xavfsizligi bo`yicha soha me`yoriy hujjatlari [1-4].

Masalaning qo`yilishi va tadqiqot usuli. Yo`l-transport hodisasining boshlang`ich fazasi deganda avtomobillarning va piyodalarning xavfli vaziyat arafasidagi harakatlanish sharoiti tushuniladi. Xavfli vaziyat deb, shunday yo`l harakati sharoiti tushuniladiki, unda harakat qatnashchilari Yo`l-transport hodisasining oldini olishga imkoniyatlari yetarli, agarda tezda bu imkoniyatdan foydalanilmasa yoki ko`rilgan choralar samarasи yetarli bo`lmasa, unda avtomobillar va piyodalar yaqinlashuvi falokatli (avariya) vaziyatni vujudga keltiradi.

Yo`l transport hodisalarini kelib chiqish shart-sharoitlari turlicha bo`lsada, ularni o`rganish, tahlil qilish, ba`zi bir o`xshashlik alomatlarini belgilashda yordam beradi. Shu asosda hodisalarni klassifikatsiyasini ishlab chihish, ularni vujudga kelish sabablarini o`rganish va bartaraf qilish uchun chora tadbirlar ishlab chiqish muhim rol o`ynaydi. Yo`l transport hodisasi quyidagicha klassifikatsiya kilinadi: to`qnashuv, ag`darilib ketish, to`xtab turgan transport vositasini urib ketish, to`sqliarga urilish, piyodalarni bosib ketish, velosipedchini bosib ketish, aravani bosib ketish, hayvonlarni urib ketish, boshqa yo`l transport hodisalari [5-6].

Yo`l-transport hodisasi vujudga kelishida umumiy tizimga kiruvchi “A-H-Y-P-M” elementlaridan biri yoki bir nechta birgalikda normal harakat rejimini buzishga sababchi bo`lishi kuzatiladi.

Har bir yo`l-transport hodisasida shartli ravishda uchta fazani ajratish mumkin: boshlang`ich, kulminatsion va yakuniy. Ular o`zaro bog`liq bo`lib, biri ikkinchisining davomi bo`lishi mumkin.

Falokatli vaziyatda harakat qatnashchilarining yo`l-transport hodisasining oldini olish bo`yicha texnik imkoniyatlari yetarli bo`lmaydi va u sodir bo`ladi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Yo`l-transport hodisasining kulminatsion fazasi og`ir oqibatlar yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi (transport vositalarining buzilishi, piyodalarning va haydovchilarning tan jarohati olishi yoki halok bo`lishi). Bu faza bir necha daqiqa, ob-havo yomon sharoitlarida esa bir necha daqiqalargacha davom etishi mumkin. Bunday holda asosan bir nechta transport vositasi ishtirok etadi va uni ko`pincha «zanjirli» yo`l-transport hodisasi ham deyiladi.


Yo`l-transport hodisasining yakuniy fazasi kulminatsion fazasidan keyin transport vositasi harakati to`xtashining oxiriga to`g`ri keladi. Ba`zi vaqtida transport vositasi harakati to`xtasa ham yakuniy faza davom etadi. Masalan, ag`darilib ketgan avtomobilda yong`in chiqish hollari.

Amaldagi me`yoriy hujjatlarga ko`ra yo`l-transport hodisasi quyidagi 9 turdan iborat:

- To`qnashuv;
- Ag`darilib (to`ntarilib) ketish;
- Turgan transport vositasini urib ketish;

- To`sqliarga urilish;
- Piyodalarni bosib (urib) ketish;
- Velosipedchini bosib (urib) ketish;
- Aravani bosib (urib) ketish;
- Yo`lovchining yiqilishi;
- Boshqa (qolgan) yo`l-transport hodisasi.


Avtomobil yo`llarida, shahar ko`cha va maydonlarida transport vositalarining normal harakat rejimining buzilishi oqibatida insonlar halok bo`lishiga, tan jarohati olishiga, shuningdek, transport vositalariga va undagi yuklarning zarar ko`rishiga, yo`ldagi sun`iy inshoatlarning zararlanishiga yoki boshqa turdagi moddiy zararlar etkazishga sababchi bo`luvchi halokatlarga yo`l-transport hodisasi deyiladi. Bu ta`rifga ko`ra yo`l-transport hodisasida ikkita omil bo`lishi tavsiflidir, bular: insonlarning o`limi, tan jarohati yoki katta miqdordagi moddiy zarar, shuningdek, biron-bir transport vositasining harakatda bo`lishidir. Harakat qatnashchilari tomonidan yo`l harakati qoidalariga amal qilmasliklari kuzatilib kelmoqda. Bular haydovchilarning qoidaga amal qilmasligi ko`plab kuzatilmoqda [5-6].



1. Rasm. Yo`l transport hodisasining sababchilarga bo`linish gistogrammasi.

Piyodalar trotuardan yoki piyodalar yo`lkasidan, ular bo`lmaganda esa yo`l yoqasidan yurishlari kerak. Hajmi katta yuklarni olib ketayotgan piyodalar, shuningdek nogironlarning dvigatelsiz kajavasida harakatlanayotgan shaxslarning trotuar yoki piyodalar yo`lkasidan harakatlanishi boshqa piyodalarining harakatlanishiga xalaqit berayotgan bo`lsa, ular qatnov qismining chetidan harakatlanishlari mumkin.

Trotuar, piyodalar yo`lkasi, yo`l yoqasi bo`lmasa yoki ulardan yurishning imkoniyati bo`lmagan hollarda piyodalar velosiped yo`lkasidan yoki qatnov qismining chetidan (ajratuvchi bo`lagi bor yo`llarda qatnov qismining tashqi chetidan) bir qator bo`lib yurishlari mumkin [7-10].




2. Rasm. Harakat qatnashchisining qoidaga amal qilmas diagrammasi.

Piyodalar trotuardan yoki piyodalar yo`lkasidan, ular bo`limganda esa yo`l yoqasidan yurishlari kerak. Hajmi katta yuklarni olib ketayotgan piyodalar, shuningdek nogironlarning dvigatelsiz kajavasida harakatlanayotgan shaxslarning trotuar yoki piyodalar yo`lkasidan harakatlanishi boshqa piyodalarning harakatlanishiga xalaqit berayotgan bo`lsa, ular qatnov qismining chetidan harakatlanishlari mumkin.

O`zbekiston Respublikasi avtomobilъ yo`llarida 1993–2020 yillar mobaynida sodir etilgan YTHni tahlil qilish natijasida YTH qatnashchilarining umumiy sonidan $25\div30\%$ ini bolalar tashkil etishi aniqlangan. Aholi punktidan o`tgan avtomobilъ yo`lining eng xavfli bo`lagi bolalar muassasalari mintaqasi ($250\div300$ m) bo`lib, bolalar ishtirokidagi YTH $50\div55\%$ shunday joylarda sodir etiladi.

YTHning sababchilar bo`yicha o`zgarishi tsiklogramma shaklida 1.4-rasmda keltirilgan.



3-Rasm. YTHning sababchilarga bo`linish tsiklogrammasi.

Statistika ma'lumotlariga ko`ra, ba'zan avtomobillarning texnik nosozligi oqibatida YTH bo`lishi qayd qilinadi. Bunda asosan transport vositasi tormozi, boshqaruviniz tizimi, shinasi, harakatga keltiruvchi agregat va mexanizmlari holati ko`zda tutiladi. Avtomobildagi nosoz isitish, sovutish tizimi, haydovchi o`rindig`ining

noqulay holati, noto`g`ri o`rnatilgan orqa ko`rinishni tasvirlovchi oyna yoki old ko`rinish oynasi tozalagichining noto`g`ri ishlashi birinchi qarashda YTHni keltirib chiqarishga sababchi emasdek tuyuladi. Ammo bu keltirilgan kamchiliklar haydovchilar psixofizilogik holatini yomonlashtirib, oqibatda YTH kelib chiqishiga to`g`ridan-to`g`ri sabab bo`ladi. Afsuski, amaliyotda ko`pchilik hollarda bunday omillar avtomobilning texnik nosozligi emas, balki haydovchining e'tiborsizligi oqibatida kelib chiqqan deb qaraladi.

O`zbekiston Respublikasida texnik nosoz avtomobilni ishlatish oqibatida ro`y berган YTHlari to`g`risidagi ko`p yillik ma'lumot 3.9-jadvalda keltirilgan.

YTHning avvalgi ittifoq miqiyosida tahlil qilingan natijalariga ko`ra, avtomobilarning nosozligi tufayli sodir etilgan hodisalar umumiylashtirish sonidan 3-5 % tashkil etishi aniqlangan [10-14].

Xulosa. Trotuar, piyodalar yo`lkasi, yo`l yoqasi bo`lmasa yoki ulardan yurishning imkoniyati bo`lmagan hollarda piyodalar velosiped yo`lkasidan yoki qatnov qismining chetidan (ajratuvchi bo`lagi bor yo`llarda qatnov qismining tashqi chetidan) bir qator bo`lib yurishlari mumkin.

Qatnov qismining chetida harakatlanayotgan piyodalar transport vositalarining harakatiga qarama-qarshi yo`nalishda yurishlari kerak. Nogironlarning dvigatelsiz kajavasida harakatlanayotgan, mototsikl, moped, velosiped yetaklab ketayotgan shaxslar esa bunday hollarda transport vositalarining harakat yo`nalishi bo`ylab yurishlari kerak.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Soliyev A., Shukurjon B. ZAMONAVIY TRANSPORT LOGISTIKA MARKAZ FAOLIYATINI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 575-580.
2. Mamadzhanov, B., Shukuraliev, A., Mannobboev, S., Turaev, S., & Patidinov, A. (2023). Mavlyanova. In Shakhnoza Dielectric separation E3S Web of Conferences.
3. Sherali T. ZANJIRLI UZATMALAR //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 117-131.
4. Икромов, Н. А. (2021). Исследования физико-механических свойств радиационно модифицированных эпоксидных композиций и покрытий на их основе. *Universum: технические науки: электрон. научн. журн.*, 12, 93.
- 5 Anvarjonovich T. S. AVTOTRANSPOST KORXONALARIDA MAVJUD YORDAMCHI USTAXONALAR FAOLIYATINI TASHKIL QILISH VA TAKOMILLASHTIRISH //World scientific research journal. – 2023. – Т. 18. – №. 1. – С. 136-141
6. Xalilbek o`g`li X. E. et al. SHAHAR MARKAZLARIDAGI CHORRAHALARDА YО `L TRANSPORT HODISALARINI VUJUDGA KELISHIDA SVETOFORLARNING O `RNI //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 8. – №. 4. – С. 93-98.
7. Kuchkorov, Isroiljon ANALYSIS OF AVAILABLE PARKING SPACES IN FOREIGN COUNTRIES OF TRANSIT ROADS FOR CARGO TRANSPORTATION BY INTERNATIONAL VEHICLES // ORIENSS. 2022. №10.

8. Muqimova, D. K., Zingirov, S. J., Axmatohunov, B. M., Zokirov, D. Z., Melikuziev, A. R., & Tursunboev, L. E. (2024). The impact of the disc roller's diameter on the combined machine's performance during the sequential processing of freshly planted soil. In E3S Web of Conferences (Vol. 471, p. 04013). EDP Sciences.
9. Темиров Ш. А. Проблемы и коммерциализация инноваций в России на современном этапе развития //Матрица научного познания. – 2019. – №. 6. – С. 184-192.
10. Kholmatov U. S. et al. Characteristics of optoelectronic discrete displacement converters with hollow and fiber light guides //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 471. – С. 06015.
11. Melikuziev A. et al. IMPROVING THE PERFORMANCE OF THE FUEL INJECTION SYSTEM //Development and innovations in science. – 2022. – Т. 1. – №. 14. – С. 10-14.
12. Xalilbek o'g'li X. E. ICHKI YONUV DVIGATEL DETALLARINI QURUM BOSISHINI TEKSHIRISH //World scientific research journal. – 2023. – Т. 18. – №. 1. – С. 110-115.
13. Karimovna M. D., Husen o'g'li H. F. XALQARO ALOQALARNI RIVOJLANTIRISHDA YUKLARNI TASHISHNI TASHKIL ETISHNI AHAMIYATI //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 10. – №. 1. – С. 155-159.
14. Karimovna M. D. AVTOMOBILLARDA QO 'LLANILADIGAN ASHYOLANING EKOLOGIK MUHOFAZASI, EKOLOGIYAGA TA'SIRI //Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlanirish istiqbollari. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 280-283.